

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI



«IQTISODIYOT»

KAFEDRASI 201-GURUH TALABASI

SATTAROV KAMRONBEKNING

«Makroiqtisodiyot» fanidan

Mustaqil Ishi

Mavzu: Iste`mol funksiyasi.

Urganch – 2015

I. Kirish

II. Asosiy qism:

1. Daromad va iste'mol o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik

2. Iste'mol va jamg'arish, ularning grafiklari

3. . Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha va chegaraviy moyillik

4. Investitsiya va unga talab

III. Xulosa

IV. Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyotini tanladi va bu butun tizimning o'zgarishiga olib keldi. Ma'muriy – buyruqbozlik tizimidan farqli o'laroq, endi bozor, talab va taklif birinchi o'ringa chiqdi. Ishlab chiqaruvchilar tovarlarning doimiy tarzda realizatsiyasini ta'minlash uchun bozordagi talabni kuzatib borishlariga to'g'ri kelishini anglab yetdilar. Shunga ko'ra, iste'molchilarning qaysi vaqtda qanday tovar va xizmatlarga ehtiyoj sezishi endilikda muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Tovarlarni yoki xizmatlarning narxi yoki sifati o'zgarganda bozordagi talabning qay tarzda o'zgarishini anglab olish tadbirkorlarga muvaffaqiyat olib kelishi iqtisodchilarga va ishlab chiqaruvchilarga ma'lum. Ulardan tashqari iste'molchilarning daromadlari o'zgarganda tovar va xizmatlarga bo'lgan talabning o'zgarishi ham daromadga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Chunki iste'mol uchun muhim tovarlar (un, guruch, yog', sabzavot mahsulotlari va shu kabilar) iste'molchilar qanday daromad olgan taqdirda ham sotib olinadi. Daromadning ortishi ularning miqdorini ko'paytirishi yoki sifatliroq mahsulot turlariga almashtirishi mumkin, lekin daromad kamaygani bilan talab yo'qolib qolmaydi. Zeb – ziynat buyumlari, oliy sifatli qimmatbaho tovarlarni sotib olish

uchun daromadning ma'lum darajaga yetishi talab qilinadi.

Prezidentimiz Islom Karimov 2013 –yil yakunlari va 2014 – yilga belgilangan ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan ma'ruzasida aholi daromadlari va iste'mol xarajatlariga alohida to'xtalib o'tdi.

“2013 – yilda xalqimizning real daromadlari 16 % ga ortdi, o'rtacha oylik, ish haqi, pensiya va stipendiyalar 20,8 % ga ko'paydi.

2013 – yilda 2000 – yilga nisbatan aholimizning iste'mol xarajatlari 9,5 barobar ortganining o'zi ko'p narsadan dalolat beradi.

So'nggi paytlarda jon boshiga to'g'ri keladigan eng muhim oziq – ovqat tovarlari bo'yicha iste'mol hajmi muttasil ortib bormoqda, ayni vaqtda nooziq – ovqat mahsulotlarni xarid qilish va xizmatlar uchun to'lanadigan sarf – xarajatlar miqdori ham sezilarli ravishda ko'paymoqda.”

1. Daromad va iste'mol o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik

Hozirgi kunda mamlakatning xalqaro bozorlarda erkin tovar ayirboshi ham xalqaro baholarda, jahon andozalariga moslashib bormoqda. Bu iqtisodiyot ta'minotining makroko'lamdagi iste'mol funksiyasini o'rganishni taqozo etadi. Chunki, iste'mol funksiyasi mohiyatini bilish iste'mol bozorini boshqarishda asos bo'ladi.

Iste'mol bozorida xaridorlar faqat fuqarolardan iborat bo'lmaydi. Xaridorlar tarkibiga aholiga bepul xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlar ham kiradi. Iste'mol bozorida har xil xizmatlar sotiladi. Iste'mol bozorining hajmi unda sotiladigan tovarlarning yalpi summasi bilan belgilanadi. Iste'mol tovarlari qat'iy davlat narxlari, nazorat qilinadigan narxlar va erkin narxlarda sotiladi.

Jamg'arma – bu, mamlakat yoki firmalar ixtiyoridagi turli majburiy to'lovlar chegirib tashlangandan keyin qolgan daromadning bir qismi. Jamg'arma – iste'mol maqsadida ishlatilmaydigan daromaddir. Jamg'arma funksiyasi daromadlar bilan jamg'arma xarajatlarining uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Uy xo'jaliklarida shaxsiy daromadlar miqdoridan turli xil soliqlarni to'lagandan so'ng o'z ixtiyoridagi daromad qoladi. Buni biz milliy daromadning bir qismi ham deb ataymiz. Bu daromadlar uy xo'jaliklari tomonidan iste'mol va jamg'arish uchun ishlatiladi.

$$(ID = S + S)$$

Demak, jamg'arma uy xo'jaligi ixtiyoridagi daromadning iste'mol qilinmagan qismidan iborat.

Agarda, milliy iqtisodiyot tashqi dunyo bilan hech qanday aloqaga ega emas (XqO) va davlatning iqtisodiyotga aralashuvi nulgaga teng (SqO), deb faraz qilinsa, unda sof milliy mahsulot ko'rsatkichi (SMM) orqali ifodalangan ishlab chiqarish hajmi ixtiyoridagi daromadga (ID) teng bo'ladi. Ya'ni:

$$SMM = ID = S + S$$

Bu erda makroiqtisodiy qonuniyat quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$S + I = S + S \text{ yoki } I = S$$
$$C + I = \text{yalpi xarajatlarga teng.}$$

Ushbu jamg'arish va investitsiyalardan ko'rinib turibdiki, uy xo'jaliklarining jamg'arishga bo'lgan istaklari tadbirkorlikning qancha miqdorda investitsiyalash xohishlariga mos tushsa, unda ishlab chiqarish hajmi ($S+S$) va yalpi xarajatlar ($S+I$) tengligiga yoki ishlab chiqarishning muvozanat darajasiga erishish mumkin.

Deylik, iqtisodiyotda eksport-import aloqalari, soliq solish va transfert to'lovlari ko'rinishida davlat aralashuvi mavjud bo'lgan bo'lsa, bunday holatda jamg'arish tushunchasi murakkablashib, quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$S = S_p + S_d + S_x$$

Bu erda: S_p - xususiy jamg'armalar;
 S_d - davlat jamg'armalari;
 S_x - boshqa mamlakatlar jamg'armalari.

Bunda xususiy jamg'armalar teng bo'ladi: daromadlar (U), transfert to'lovlari (TR), davlat zayomlari bo'yicha foizlar yig'indisi (N), minus soliqlar (T) va iste'mol (S);

$$S_p = (U + TR + N - T) - C$$

Davlat jamg'armalari teng:

$$S_d = (T - TR - N) - G$$

Agar davlat jamg'armalari nolga teng bo'lsa, davlat budjeti muvozanatlashgan, jamg'arishning manfiy miqdori budjet taqchilligini (VT) bildiradi:

$$VT = -S_g$$

Boshqa mamlakatlarning jamg'armalari teng, tashqi dunyoning bizning importimiz hisobiga olgan daromatlari minus ularning bizning eksportimizga sarflangan harajatlariga teng:

$$S_x = M - X \text{ yoki } S_x = -NX$$

Agar mamlakat eksportiga nisbatan ko'proq import qilsa, unda daromadlarning bir qismi xorijda qoladi va keyinchalik undan xorijiy sheriklar tomonidan mamlakatimizda ko'chmas mulk va moliyaviy aktiv sotib olishda foydalaniladi.

Har qanday holatda ham barcha turdagi jamg'armalarning umumiy yig'indisi investitsiyalarga teng bo'ladi:

$$S_p + S_d + S_x = (U + TR + N - T) - C + (T - TR - X_1) - G + (-N_x)$$

yoki

$$S_p + S_d + S_x = U - C - G - NX = IS \text{ q } I.$$

2. Iste'mol va jamg'arish, ularning grafiklari


Ixtiyordagi shaxsiy daromad iste'mol va jamg'arish uchun ishlatiladi. Ya'ni, qancha ko'p iste'mol qilinsa, shuncha kam jamg'ariladi va aksincha. Iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik har xil daromadga ega bo'lgan shaxslarda bir xil emas: kam daromadga ega bo'lganlar, odatda, ko'proq iste'mol qilib,

kamroq jamg'aradi, lekin daromadlari oshib borishi bilan bu nisbat jamg'arish tomonga o'sadi.

6-jadval

Daromad, iste'mol va jamg'arish ko'rsatkichlari

Yillar	Daromad (U)	Iste'mol (C)	Jamg'arish (S)
1	370	375	-5
2	390	390	0
3	410	405	5
4	430	420	20
5	450	435	15
6	470	450	20
7	490	465	25



Iste'mol grafigi

Iste'mol grafigi ikki to'g'ri chiziq ko'rinishida berilgan. Birinchisida u shunday shartli holatni izohlaydigan, ya'ni, har qanday yilda iste'mol ixtiyoridagi daromadga teng bo'ladi. Ikkinchisi haqiqatda iste'mol grafigi bo'lib, haqiqiy iste'mol va daromad teng bo'lgan nuqtada (390) bissektrisa bilan kesishadi. Bundan quyi nuqtada haqiqiy iste'mol daromaddan oshiq. Bu vaziyat insonlarning qarz hisobiga hayot kechirishini bildiradi. Yuqori nuqtadagi haqiqiy iste'mol daromaddan kam hamda ular o'rtasidagi farq jamg'arishni tashkil etadi.


Jamg'arish grafigi daromad bilan jamg'arish o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Vertikal o'qdagi har bir nuqta jamg'arma miqdorini bildiradi va

daromad bilan unga muvofiq keladigan iste'mol hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi (S_qU-S). Boshlang'ich daromad darajasida jamg'arish nulgga (0) teng holda ular daromadi o'sib borishi bilan oshib boradi. Jamg'arish grafigi ham iste'mol grafigiga o'xshab algebroik ifodaga ega:

$$S = -a + v;$$

Bunda: a - daromad darajasi uning boshlang'ich nuqtasidan past bo'lganda qarz hajmi;

v - og'ish burchagi bo'lib, jamg'arishning o'zgarishi (vertikal o'zgarish) daromadning o'zgarishiga (gorizontal o'zgarish) bo'lgan nisbati sifatida aniqlanadi: $5 / 20$ q 0.25



Jamg'arish grafigi

Tenglamaga daromad to'g'risida berilganlarni qo'yib, unga muvofiq keladigan jamg'arish miqdorini aniqlash mumkin:

$$S = -97,5 + 0,25 \times 370 = -5.$$

3. Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha va chegaraviy moyillik

Makroiqtisodiy tahlil qilish va tartibga solishda iste'mol va jamg'arma funktsiyalarini yanada to'laroq bilish uchun iste'mol va jamg'armaga o'rtacha moyillik va chegaralangan jamg'arma va iste'molga moyillik tushunchalarini bilishimiz lozim.

O'rtacha miqdor yoki iste'molga o'rtacha moyillik deganda o'z ixtiyoridagi daromaddan iste'mol xarajatlarining ulushi tushiniladi, ya'ni:

$$\text{ARS} = (S / U) \times 100 \% \text{ yoki } \text{ARS} = \text{Iste'mol } (S) / \text{Daromad } (U)$$

Ixtiyordagi daromaddan jamg'arish ulushini jamg'arishga o'rtacha moyillik deb ataladi, ya'ni:

$$\text{ARS} = (S / U) \times 100\% \text{ yoki } \text{ARS} = \text{Jamg'arma}(S) / \text{Daromad } (U)$$

Misol uchun, daromad darajasi 410, 430 va 530 million so'mga va iste'mol darajalari 405, 420 va 495 million so'mga teng bo'lsa, iste'molga o'rtacha moyillikni hisoblaymiz, ya'ni:

$$\text{ARS q } (405 / 410) \times 100 \% \text{ q } 98,78 \text{ yoki } 0,98;$$

$$\text{ARS q } (420 / 430) \times 100 \% \text{ q } 97,67 \text{ yoki } 0,97;$$

$$\text{ARS q } (495 / 530) \times 100 \% \text{ q } 93,39 \text{ yoki } 0,93 \text{ ga teng.}$$

Demak, bu misollardan ko'rinib turibdiki, daromadlar miqdori ko'payib borishi bilan iste'mol kamayib va aksincha jamg'arma ko'payib boradi. Soliqlar to'langandan keyin qolgan daromadning bir qismi iste'mol qilinadi, ikkinchi qismi esa jamg'ariladi yoki buni matematik holda ifodalasak:

$$\text{ARS} = \text{ARS} = 1$$

Uy xo'jaligi soliqlarni to'lagandan keyin qolgan barcha daromadlarni har doim ham iste'mol qilavermaydi. Daromadlar ma'lum darajada ko'payib va kamayib turadi.

Iste'mol qilinadigan daromadning o'sgan (yoki kamaygan) qismi (salmog'i) chegaralangan iste'molga moyillik deyiladi va quyidagicha aniqlanadi:

MRS q Iste'moldagi o'zgarish (+,-)/Daromaddagi o'zgarish (+,-) q S / U
Ya'ni:

$$S \text{ q } 420 - 495 = 15; \quad U \text{ q } 530 - 430 = 100;$$

$$U \text{ q } 430 - 410 = 20; \quad S \text{ q } 495 - 420 = 75;$$

$$\text{MRS1} = 15 / 20 = 0,75; \quad \text{MRS2} = 75 / 100 = 0,75.$$

Bu shuni bildiradiki, daromad 100 % ga (yoki bir birlikka) o'zgarganda iste'mol 75 % (yoki 0,75) o'zgaradi.

Daromadning o'sgan (yoki kamaygan) qismi (salmog'i), agarda jamg'armaga qo'yilsa, bunday daromad chegaralangan jamg'armaga moyillik, deyiladi va quyidagicha aniqlanadi:

MRS q Jamg'armaning o'zgarishi (+,-)/Daromadning o'zgarishi(+,-)= S/U
Ya'ni:

$$\text{MRS1} = 5 / 20 = 0,25; \quad \text{MRS2} = 25 / 100 = 0,25.$$

Shunday qilib, chegaralangan iste'molga moyillik 0,75 ni tashkil etgan bo'lsa, chegaralangan jamg'armaga moyillik esa qolgan 0,25 ni tashkil etadi.

Chegaralangan iste'molga moyillik va chegaralangan jamg'armaga moyillik birgalikda soliqlarni to'lagandan keyingi daromadga tengdir. Xulosa qilib aytganda, daromadning o'sgan qismi iste'molga yoki jamg'armaga ketadi. Agar daromadning o'sgan qismi iste'mol qilinmasa, u jamg'armaga qo'yilgan bo'ladi.

4. Investitsiya va unga talab

YaMMni xarajatlar bo'yicha aniqlashning ikkinchi qismi bo'lgan investitsiyalarga to'xtalib o'tamiz.

Investitsiyalar yoki kapital qo'yilmalar – bu, hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapitaldir. O'zining moliyaviy shakliga ko'ra, ular foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar hisoblansa, iqtisodiy xususiyatiga ko'ra, yangi korxonalar qurish, uzoq muddatli xizmat ko'rsatuvchi mashina va asbob-uskunalar hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir.

Demak, investitsiyalar – bu, yangi korxonalar qurilishiga, mashina va asbob-uskunalar sotib olishga, ya'ni, kapital barpo etishga ketgan xarajatlardir.

Sof xarajatlarning investitsiyaga bo'lgan xarajati miqdori ikkita omilga, ya'ni, sof foydaning kutilayotgan me'yori va foiz stavkasi yoki tadbirkor real kapitalni sotib olishga zarur pulga ega bo'lishi uchun to'lashi lozim bo'lgan bahoga teng.

Agarda kutilayotgan foyda me'yori foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali va aksincha, foiz stavkasi kutilayotgan foyda miqdoridan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali bo'lmay qoladi.

Misol uchun, zavodga 100000 so'mlik yangi stanok sotib olindi. Uni ishlatish muddati bir yilga teng deylik. Yangi stanokni qo'llashdan zavod 110000 so'mlik kutilayotgan sof daromadni oladi desak, zavod stanok xarajatini (100000 so'm) qoplagan va 10000 so'm daromad olgan bo'ladi. Sof foyda normasi quyidagicha aniqlanadi:

$$Fn = q \cdot 10000 / 100000 \times 100 \text{ q } 10\%.$$

Investitsiya xarajatlari foyda keltirishini aniqlashda nominal foiz stavkasi emas, balki real foiz stavkasi hisobga olinadi. Real foiz stavka narxlar darajasining o'zgarishini aks ettirib, nominal stavkadan inflyatsiya darajasi ayirmasi ko'rinishida aniqlanadi. Masalan, nominal foiz stavkasi 16% ga teng bo'lsa, inflyatsiya darajasi yiliga 12% ni tashkil etsa, unda real foiz stavkasi 4 foizini (16%-12%) tashkil etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, investitsiyalash qarorini qabul qilishda nominal foiz stavkasi emas, balki real foiz stavkasida, nominal foiz stavkasi joriy baholarda, real foiz stavkasi doimiy yoki inflyatsiya hisobga olingandan keyin aniqlashtirilgan baholarda hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, real foiz stavkasi - bu, nominal foiz stavkasidan inflyatsiya chegirib tashlab, topilgan foiz stavkasidir.

Yuqoridagi misolimizda baho o'zgarmas deb olindi. Agar inflyatsiya bo'lsa, real foiz stavkasi va kutilayotgan sof foyda normasi qanday aniqlanadi? Misol

uchun, 100000 soʻmlik investitsiya 10% haqiqiy kutilayotgan sof foydani keltiradi, deylik. Nominal foiz stavkasi 15 foizini tashkil qilsin.

Real foiz stavkasi qnominal foiz stavkasi - inflyatsiya foizi = 15% - 10%= 5%.

Endi real foiz stavkasini (15%), kutilayotgan sof foyda normasi (10%) bilan taqqoslasak, investitsiya olishga qaror qilish mumkinligini aniqlaymiz (10%-5%q5%). Demak, 5% sof kutilayotgan foyda normasiga erishish mumkin.

Misol uchun, biz quyidagi 7-jadval maʼlumotnomalaridan foydalanib, kutilayotgan foyda normasi bilan (%) investitsiya hajmi oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni koʻrib chiqamiz, yaʼni, yalpi kutilayotgan foyda normasi va yalpi investitsiyani aniqlaymiz.

Jadvaldan koʻrinib turibdiki, kutilayotgan foyda normasi 16 % ga teng va undan koʻp boʻlgan miqdordagi investitsiya loyihalarini, investitsiya bilan taʼminlab boʻlmas ekan. Kutilayotgan foyda normasi 14% va 16% boʻlganda 5 mlrd. soʻmlik investitsiya mavjud boʻladi. Buning maʼnosi shuki, qoʻshimcha 5 mlrd. soʻmlik investitsiya 12-14% oraligʻidagi kutilayotgan sof foyda normasini keltiradi.

Yana qoʻshimcha 5 mlrd. soʻm esa 10-12% oraligʻidagi kutilayotgan sof foyda normasini bildiradi. Buni biz grafikda ham tasvirlashimiz mumkin (14-chizma).

Grafikdan koʻrinib turibdiki, agar investitsiyalar miqdori 10 mlrd. soʻmga teng boʻlsa, foyda normasi 12% va undan koʻp, 14% gacha boʻladi.

Yuqorida aytilganidek, investitsiya olishga qaror qilish uchun eng asosiy shart shuki, kutilayotgan sof foyda normasi foiz stavkasidan yuqori boʻlishi zarur, aks holda investitsiya xarajatlari qoplanmaydi.

7-jadval


Kutilayotgan foyda va investitsiya (raqamlar shartli)

Kutilayotgan sof foyda Normasi, %	Investitsiya miqdori (mlrd. soʻm)
16	0
14	5
12	10
10	15
8	20
6	25
4	30
2	35
0	40

Demak, real foiz stavkasi, yaʼni, pul kapitalini qarz olish bahosi qanchalik yuqori boʻlsa, investitsiyalashni xohlovchilar shuncha kam boʻladi va aksincha, real foiz stavkasi qanchalik past boʻlsa, foyda keltiradigan investitsiya loyihalari shuncha koʻp boʻladi.

Foiz stavkasining miqdori pul-kredit siyosatining muhim vositasi hisoblanadi: davlat uni o'zgartirish orqali mamlakatdagi pul taklifini tartibga solib turadi.

Foiz stavkasining ko'tarilishi pul qimmatlashuvi va unga bo'lgan talabning qisqarayotganligini bildiradi. Demak, investitsiya xarajatlari ham qisqarib boradi. O'z navbatida investitsiya xarajatlarining qisqarishi, kelajakda milliy ishlab chiqarish hajmining pasayishini bildiradi.



Kutilayotgan foyda va investitsiyaning grafigi

Qisqacha xulosalar

Aholining daromadlari miqdori oshib borishi bilan jamg'armalar miqdori ham oshib boradi. Bundan tashqari iste'mol bozorida faqat fuqoralar emas, balki ularga xizmat ko'rsatadigan korxona va tashkilotlar ham xaridor hisoblanadi.

Iste'mol va jamg'arish chizig'i iste'molchilar jamg'armasida bo'layotgan o'zgarishlarga, narx va soliq, iste'molchi qarzi darajasi, shuningdek, uy xo'jaliklarining taqsimlanadigan daromadlaridagi o'zgarishlarga bog'liq.

Iste'mol va jamg'armaga o'rtacha va chegaraviy moyillik aholi daromadlarining qancha qismi iste'molga va qancha qismi jamg'armaga ketyotganligini tushinish imkoniyatini beradi.

Investitsiya yoki kapital qo'yilmalar hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan mablag' hisoblanadi. Demak, investitsiya yangi korxonalar qurishga, mashina va asbob-uskunalar sotib olishga ketgan xarajatlardan iborat. Investitsiyaga qilingan xarajatlar sof foydaning kutilayotgan me'yori va foiz stavkasiga bog'liq. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, iste'molchi talabining o'zgarishini tahlil qilishda daromad samarasi va iste'mol muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida jamg'arish va iste'mol samarasini o'rganish tovarlarga narx belgilash qonuniyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Zero, har qanday korxona o'z foydasini maksimallashtirish uchun tovarlariga bo'lgan talabning doimiyligini ta'minlashi kerak. Chunki har qanday yirik korxonalar, monopoliyalar, konsernlar agar tovarlariga talab bo'lmasa, inqirozga yuz tutadi. Shuning uchun ham iste'molchi daromadining o'zgarishini yoki boshqa tovarlar narxi o'zgarishini yetarli darajada tahlil qilish firmaning barqaror rivojlanishiga olib keladi.

Asosiy adabiyotlar

1. Galpirin V.M., Igratov S.M., Morgunov V.I. Makroekonomika. Tom-1. S. Peterburg. 1994.
2. Ishmuxamedov A.E., Jumaev Q.X., Jumaev Z.A. Makroiqtisodiyot (ma'ruzalar matnlari). Toshkent: TDIU - 2000.
3. Yo'ldoshev Z., Qosimov M.S. Makroiqtisodiyot asoslari. T.: «O'qituvchi», 1994.
4. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: «O'zbekiston», 1995.
5. Menkyu N.G. Makroekonomika. M: MGU. 1994.
6. Hakimova M.A. Makroiqtisodiyot (o'quv qo'llanma). T.: «Mehnat», 1997.